



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

**mavzusidagi VIII an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI**

**Toshkent
2024-yil, 26-aprel**

UO‘K:378.147(575.1)

“Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari [Матн] / — Toshkent: “Anorbooks”, 2023. — 456 b.

Mazkur to’plamdan tilshunos va adabiyotshunos olimlar, metodistlar, akademik litsey hamda umumta’lim maktabi o’qituvchilari, tadqiqotchilar, magistrant, talabalarining maqola va tezislari o’rin olgan. To’plamda global ta’lim va milliy metodika, ona tili va o’zbek (davlat tili) tilini o’qitish, adabiyot fanini o’qitishda zamonaviy yondashuvlar hamda til va adabiyot ta’limida innovatsion g’oyalar kabi mavzular o’z aksini topgan.

To’plam ona tili, o’zbek (davlat) tili va adabiyoti ta’limi, uni o’qitish metodikasi sohasidagi mutaxassislar, tadqiqotchilar, magistrant hamda talabalar uchun mo’ljallangan.

To’plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

M.Abdullayeva, I.Ishonxonova, S.Inomjonova, F.Qulsaxatov, M.Elboyeva, M.Qosimova

Mas’ul muharrir

Pedagogika fanlari doktori, professor R.Niyozmetova

Taqrizchilar:


Pedagogika fanlari doktori, dotsent K.Mavlonova

Ped fanlari bo’yicha falsafa doktori, (PhD) dotsent S.Kambarova


Ushbu to’plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti “O’zbek adabiyoti ta’limi” kafedrası tomonidan “Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusida 2024-yil 26-aprelda o’tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

*To’plamdan o’rin olgan maqolalarning ilmiy saviyasiga
mualliflarning o’zlari mas’uldirlar.*

UO‘K:378.147(575.1)



GLOBAL TA'LIM VA MILLIY METODIKA



Maxfuza Abdialimova. Qozoqboy Yo’ldoshning badiiy asarga yondashish tamoyillari	233
Ra’no Xoliqova. 5–6-sinf o’quvchilarining kreativ fikrlash ko’nikmalarini o’quv topshiriqlari asosida rivojlantirish	238
Zaynab Kurbanova. Leksikologiya va frazeologiyaga oid mavzularni o’qitishda nutqni rivojlantirish usullari	242
Didora Ibragimova, Guljahon Muxtorova. O’quvchilarda o’qish savodxonligi va funksional savodxonlikni shakllantirish omillari	245
Dildora Ibragimova, Nilufar Ismatova. O’qish savodxonligi darslarida boshlang’ich sinf o’quvchilarining badiiy asarlarni sharhlash ko’nikmalarini shakllantirish	247
Bashorat Muminova. Ish qog’ozining asosiy matni ustida ishlash	249
Intizor Jumaniyazova. Fardlar tahlili orqali o’quvchilar tanqidiy tafakkurini rivojlantirish	252
Mirzabek Xolyorov. Abdulla Oripov – tabiat musavviri	257
Husniddin Qoraboyev. Boshlang’ich sinf o’qish savodxonligi darslaridan uy vazifalarini samarali tashkil etishning ahamiyati	259
Mahliyo Elboyeva. Maktab ta’limida bolalar adabiyoti namunalarini o’qitishda psixologik metodlardan foydalanish imkoniyatlari	261
Shoxista Mahmudova. Biografik talqinning ijodkor obrazini o’rganishdagi o’rni	266
Nargiza Ergasheva. Adabiyot darslarida loyiha ishi: Kitob treylari (“Book trailer”)	270
Nilufar Kadirova. O’quvchilar tanqidiy tafakkurining shakllanishida “aydos-konspekt” usulining o’rni	272
Maxmuda Yuldasheva. Adabiy ta’limda lirik, epik va dramatik asarlarni o’qitishda evristik yondashuvdan foydalanish amaliyoti	278
Ozoda Shukurboyeva. O’quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishning nazariy asoslari	285
Madina Abduqodirova. Kognitivizm va uning adabiy ta’limga tatbiqi	287
Nilufar Turg’unova. Faoliyat mazmuniga ko’ra o’quv loyihalarining turlari	294
Gulshoda Ruziyeva. Zamonaviy tilshunoslikning sotsioprogmatik xususiyatlari	296
Nodirbek Xasanboyev. Oliy adabiy ta’limda masofadan o’qitish muammo sifatida	298
Madina Axmadjanova. Ona tilini o’qitish muammolari (Turkiyada ona tili ta’limini o’qitish misolida)	301
Malika Axmadjanova. Til o’qitishda lug’at boyligini darajalash tamoyillari	304
Laylo Xursanova. Xorijiy tilini o’qitishda mediata’lim vositalaridan foydalanish holati	307
Shaxnoza To’rayeva. 5-sinf “Ona tili” darsligida grammatik savodxonlikni shakllantiruvchi o’quv topshiriqlari tahlili	310
Zebiniso Davronova. Ona tili darslarida yozma nutqni rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari	312

ADABIY TALIMDA LIRIK, EPIK VA DRAMATIK ASARLARNI O'QITISHDA EVRISTIK YONDASHUVDAN FOYDALANISH AMALIYOTI

Maxmuda Yuldasheva

ToshDO'TAU tayanch doktoranti
mahmudauldaseva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchiga asarni faqatgina o'qitish, qayta so'zlatish bilan singdirish juda murakkabligi, har bir o'rganilayotgan badiiy asarni turli xil metod va usullar, didaktik o'yinlar bilan qiziqarli qilib tahlilga tortish haqida fikr yuritiladi. Adabiyot darslarida lirik hamda nasriy asarlarni o'qitishda evristik usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu usullarni darsning har xil bosqichlarida, turli maqsadlarda qo'llash mumkin. Ya'ni yangi asarni bayon etish, mustahkamlash, takrorlashda, uyga berilgan topshiriqlarni, mustaqil ishlarni tekshirishda qo'llash mumkin.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, ijodiy faoliyat, evristik usul, interfaol metod, zamonaviy pedagogika, innovatsion usullar, ijodiy faollik, evristik ta'lim, ijodiy topshiriq, lirik asarlar, epik asarlar.

Annotation: In this article, it is very difficult to teach the work to the student only by teaching and retelling, it is very difficult to analyze each studied work of art with various methods and methods, didactic games. The use of heuristic methods in teaching lyrical and prose works in literature classes is effective. These methods can be used at different stages of the lesson and for different purposes. That is, it can be used for explaining, strengthening, repeating a new work, checking homework assignments, and independent work.

Key words: creativity, creative activity, heuristic method, interactive method, modern pedagogy, innovative methods, creative activity, heuristic education, creative task, lyrical works, epic works.

Hozirgi vaqtda xorijda va milliy ta'lim tizimimizda ommalashib borayotgan innovatsion yondashuvlardan biri o'rgatishda evristik yondashuvlardan foydalanish hisoblanadi. Evristika so'zi "heurisko" – qadimgi yunon tilidan kelib chiqqan so'z bo'lib, topish, kashf qilish yoki qidirish degan ma'nolarni anglatadi. Bu so'z yunon tilidan so'zma-so'z tarjima qilinganda "Evrika!" – "Topdim!" bo'lib, Arximedning afsonaviy qiyqirig'i, qiyin vazifani hal qilishda, uni yechimini topishda hamda kashf etishdagi quvonchni ifodalash uchun keng tarqalgan. Demak, "Evrika!", "evristika" atamaları bir ildizga ega so'zlar hisoblanadi. 1781–1848-yillarda yashab o'tgan matematik va faylasuf Bolzano "Evristika" atamasining zamonaviy talqinini o'z asarida qo'llagan. Matematik "Ilmiy ta'limot" asarining to'rtinchi qismi sarlavhasida aynan shu so'zni qo'llagan: "Kashfiyotchilik san'ati yoxud evristika to'g'risida". Evristikaning o'zi ko'p ma'noli tushuncha bo'lib, bir vaqtning o'zida uning bir nechta talqinlarini 2010-yilda nashr etilgan "Falsafa: ensiklopedik lug'at" kitobida ko'rishimiz mumkin. Ushbu kitobda evristikaga quyidagicha ta'rif beriladi: Evristik yoki evristik faoliyat bu – samarali ijodiy fikrlash jarayoni, shuningdek ijodiy fikrlash va ijodiy faoliyatni o'rganadigan fan [M.Abdullayeva, 2010:307].

Jahon adabiyotshunosligida evristik yondashuvga oid, ya'ni o'quvchini ijodkorlikka yo'naltirish masalalariga doir juda ko'plab tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar olib borilgan. Evristik yondashuvni qo'llash muammolari hamda uni ta'lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etish usullari faylasuflar, psixologlar va ilmiy tadqiqotchilar asarlarida ishlab chiqilgan. Jumladan, Sokrat, Arximed, G.S.Altshuller, A.Binet, B.Bolzano, R.Dekart, K.Dunker, A.N.Leontyev, D.Poya, A.Ponomarev, A.Puankare, S.L.Rubinshteyn, A.V.Xutorskoy, S.I.Shoxor-Trotsky, N.Sokolovlarning asarlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini samarali rivojlantirishda evristik usullardan foydalanishning afzalliklari va ularga qo'yiladigan talablar haqida G.S.Altshuller, V.A.Buxvalov, A.A.Gin, M.A.Danilov, A.M.Matyushkinlar ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borishgan. Ular o'z ilmiy risolalarida ijodiy vazifalarga qo'yiladigan talablarni quyidagi guruhlariga ajratishgan:



Ijodiy vazifalarga qo’yiladigan talablar				
Ochiqlilik (muammoli vaziyat mazmuni)	Shartning tanlangan ijod usullariga muvofiqligi	Turli xil yechimlarni topish imkoniyati	Hozirgi rivojlanish darajasini hisobga olinganligi	O’quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish

Jadvalga e’tibor qaratadigan bo’lsak, olimlar tomonidan ijodiy vazifalarni tuzishda o’quvchining aqliy faolligi, mehnatsevarligi va zukkoligini rivojlantirishga qaratilgan o’quv jarayonini tashkil etish usullariga, maqsadga erishish uchun o’quvchi tomonidan zarur bo’lgan bilimlarni mustaqil ravishda izlashga e’tibor berilgan.

Zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko’ra, bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishning eng muhim pedagogik shartlari quyidagilardir:

- faoliyatning mohiyatini o’zgartirish;
- bolalarning ta’lim faoliyatida xayrixohlik muhiti;
- jamoaning shakllanishi.

Shu o’rinda ijodiy fikrlash hamda ijodiy faoliyatni rivojlantiruvchi muhim vositalardan biri hisoblangan evristik yondashuv tushunchasiga alohida to’xtalib o’tsak. Evristik yondashuv – o’rganish jarayoni bo’lib, uning asosiy maqsadi o’quvchilarning intellektual fikri va maqsadini aniqlashga yordam berish, ta’lim olish jarayonida zaruriy kompetensiyalarni shakllantirish hamda o’quv-tarbiya jarayonida yo’naltiruvchi savollar orqali yangilikni kashf etib borishga asoslangan o’qitish tizimidir. Bu jarayon natijasida o’quvchilarda sinchkovlik, topqirlik, izlanuvchanlik, maqsadlar izchilligini ilg’ay olish kabi ijobiy ko’nikmalar shakllanishi bilan birga muammoli vaziyatlarda mustaqil izlanish, qo’yilgan vazifalarga aniq yechim topish layoqati egallanadi. Evristik yondashuv orqali ta’lim jarayonida sifat va samaradorlik oshadi hamda quyidagi muvaffaqiyatlarga erishiladi:

– evristik yondashuv asosidagi ta’lim o’quvchi shaxsiga yo’naltirilgan, o’quvchining shaxsan izlanishi, o’rganishi, o’ylanishiga asoslangan, bu jarayonda o’quvchi mustaqil izlanishi, qidirishi, topishi orqali ongli o’zlashtirishga erishadi;

– o’quvchini ijodiy fikrlashga o’rgatadi hamda muammolarning yechimini topish orqali intellektual salohiyatini oshiradi. O’quv fanidagi tayyor mazmun, ma’lumotlarni olib qolmay, uni individual ishlashi orqali o’quv materialini olish va o’z salohiyatiga suyanib ish tutish ko’nikma va malakasi shakllanadi. Buning uchun o’quvchilarning o’z ijodiy faolliklarini namoyon qilish imkonini beradigan vaziyatlar tashkil etiladi. Mazkur yondashuv o’quvchilarga axborotlarni taqdim etish imkoniyatini cheklamaydi, balki mazkur axborotlarni o’zlashtirish va amaliy faoliyatlarida qo’llashlari uchun shart-sharoit yaratadi. Evristik o’qitish jarayonida o’qituvchi tomonidan o’quvchilarga taqdim etiladigan bilimlardan ularda ijodiy faoliyat tajribasini hosil qilish maqsadida foydalaniladi. Evristik yondashuv pedagogikada o’quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantiruvchi, ularda maqsadga yo’naltirilgan, sermahsul o’quv-biluv harakatlarini tarkib toptiruvchi metod sifatida alohida ahamiyatga egaligi uchun ham innovatsion, universal ekanligini grek matematigi Papp Aleksandriyskiy, keyinchalik esa fransuz faylasufi va matematigi Dexretlerlar ta’kidlashgan edi. Y.A. Komenskiy Evristik yondashuvni ta’lim tizimiga kiritish zarurligi haqidagi fikrlarni ilgari suradi: Evristik yondashuvdan ta’lim jarayonida foydalanish orqali shaxsning o’ylashi, ijodiy fikr yuritishi zaminida turli yangiliklarni yaratuvchi shaxs tarbiyalanadi. Rus pedagogi P.K. Konterevning ushbu mulohazasi ham Yan Amos Komenskiyning fikrini tasdiqlaydi: “Maktabda evristik yondashuv tizimini keng joriy etish ijodiy fikr yurituvchi shaxsning shakllanishiga zamin yaratadi”.

Yu.N.Kulyutkinning ta’biricha, evristik yondashuv yordamida inson yechimlarning yangi usullarini kashf etadi, nostandart rejalar va dasturlar tuzadi. Bunday rejalar va dasturlar yordamida yechimlarning aniq mazmunga ega bo’lgan usullari izlab topiladi [Ю.Н.Культкин, 1970: 63]. Pedagogik psixologiyaning asoschisi P.F.Kapterevning ta’kidlashicha, o’quvchilarda xarakter va dunyoqarashni rivojlantirishni ta’minlash maktabning rolidir. Buni aqliy havaskorlikni rivojlantirmasdan, aqliy mehnatga ko’niktirmasdan va unga qiziqishni rivojlantirmasdan amalga oshirish mumkin emas. Bunday vazifaga faqat evristik yondashuv bilan erishish mumkin [П.Ф.Каптерев, 1897: 146].

Mazkur yondashuv asosida o'quvchilarda ijodiy izlanuvchanlikka xos sifatlarni shakllantirish yo'llari va pedagogik-psixologik imkoniyatlari xorijlik olimlardan A.Giddens, A.Hargreaves, H.D.Schmidt, R.Sears, Jantine L.Spilt, G.Wegner, H.Widdellarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan esa V.I.Andreyev, G.A.Andrianova, I.V.Aksenova, G.Armstrong, S.S.Bakulevskaya, T.A.Batyayeva, N.V.Bugorskaya, G.Ya.Bush, I.A.Valeyeva, V.N.Voronin, R.F.Galiyaxmetova, M.N.Eroxina, P.F.Kapterev, A.V.Kachalov, A.D.Korol, O.O.Makaricheva, N.V.Matetskiy, V.N.Sokolov, Ye.V.Sherstova, A.V.Xutorskoilar tomonidan o'rganilgan.

Respublikamizda Evristik metod yordamida o'quvchilarda ijodiy izlanuvchilikka xos sifatlarni shakllantirish yo'llari va pedagogik-psixologik imkoniyatlari N.S.Mamatov, J.Tursunov, S.Qambarova, Sh.Hamdamov, D.J.Gaipov, I.G'.Abdullayeva, F.K.Razikova, O.O.Xalloqova, A.Turaqulova, K.A.Shokarimovalar tomonidan o'rganilgan va tadqiq etilgan.

Taniqli mutaxassis A.V.Xutorskoy [A.B.Хуторской, 1998: 266] evristik yondashuv asosida o'qitish metodlarini quyidagi guruhlariga ajratadi. Ular:

- kognitiv o'qitish metodlari;

- kreativ o'qitish metodlari;

- tashkiliy-faoliyatli o'qitish metodlari. Yuqori sinf o'quvchilarining evristik layoqatlarini shakllantirish uchun kognitiv (bilishga oid) hamda kreativ (yaratish, ijodkorlikka oid) metodlarni qo'llash maqsadga muvofiq. Tashkiliy-faoliyatli metodni esa ta'limning barcha bosqichlarida qo'llash mumkin. Bu metod guruhlarida ishlash, amaliy topshiriqlar va ta'limning boshqa faol shakllarini tashkil etish orqali o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb etishni yaratishga qaratilgan turli yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ushbu usullar interaktiv ta'limni rivojlantirishga yordam beradi, mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi, muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi va mavzuni yaxshiroq o'rganishga yordam beradi.

K.P.Fedorov, G.V.Abramyan [К.П.Федоров, Г. В.Абрамян, 2012: 268]lar evristik yondashuvga asoslangan usullarning bir qator imkoniyatlarini tahlil qilganlar. Ushbu imkoniyatlardan o'qituvchilar muayyan o'quv vaziyatlarida samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishlari kerak. Ular:

- o'quvchilarning shaxsiy-ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan evristik topshiriqlar.

- evristik savollar va o'yinlar asosida qurilgan musobaqa vaziyatlari; bunday vaziyatlar o'quvchilarda topqirlik, ijodkorlik va tashabbuskorlikni shakllantiradi. Ushbu vaziyatlarda o'quvchilar qisqa muddat ichida o'zlarining ijodiy mahsulotlarini yaratishga muvaffaq bo'ladilar;

- o'quv jarayonini imkon qadar ilmiy, mahsuldor sharoitlarga yaqinlashtiruvchi ishchan o'yinlar. Ishchan o'yinlar o'quvchilarning o'zlari tomonidan tuzilgan muayyan loyihalarini himoya qilishlarini nazarda tutgan holda tashkil etiladi. Ular topshiriqlarni guruh bo'lib yechishga yo'naltiriladi;

- o'quvchilarning ijodiy ishlari; bunday ishlar o'zining ko'lami, turi, sarflanadigan vaqti bilan o'zaro farqlanadi. Bunday topshiriqlar o'rganilayotgan mavzu bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'quvchilar ularni sinfda yoki uyda bajaradilar.

X.M.Tojiboyevaning fikricha, evristik yondashuv asosidagi o'qitish metodlari o'quvchilarning yutuqlarini kafolatlash va ularni intellektual rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Pedagogik jarayonda evristik o'qitish metodlarini o'quvchini faollashtirish metodi sifatida baholash tajribasi mavjud. Chunki mazkur metodlarni qo'llash natijasida o'quvchilarda yuqori darajadagi ichki hamda tashqi faollik kuzatiladi [H.M.Tojiboyeva, 2020: 51]. Ichki faollik asosan insonda psixik jarayon natijasida yuzaga chiqadi. O'quvchi ma'lum bir asar bilan tanishish davomida undagi voqealar, asar qahramonlari va ularning ruhiy kechinmalarini his etadilar. Ular bilan hamnafas bo'lib, bir zamon va bir makonda "yashaydilar". Bu esa ta'lim oluvchining ichki (psixik) faoliyati bo'ladi. Tashqi faollik esa o'quvchining xatti-harakatlarini ifodalovchi jismoniy faolligidir. Ayniqsa, adabiyot darslarida evristik yondashuv asosidagi usullardan foydalanish topshiriqlarni tabiiy tarzda mustaqil bajarish hamda betakror yechimlarni ilgari surish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda ishonchli ma'lumotlarni izlash, ularni qayta ishlash va foydalanishga ko'maklashadi.

A. Zunnunov, J.Esonov hammuallifligida yozilgan "Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi" kitobida evristik metod haqida quyidagi fikrlar va qarashlar ilgari suriladi: asarda yozuvchi qo'ygan muammolarni aniqlashda, ularni hal qilish yo'llarini belgilashda, asar komponentlarining o'zaro uzviy bog'liqligini tushunib olishda, o'z fikr-mulohazalarini izchillikda, faktlar asosida og'zaki va yozma

bayon etishda o’quvchilarga ko’maklashish, asarni analiz qilishni o’rgatishda evristik (izlanish) metod o’qituvchilarga katta imkoniyat beradi. Demak, evristik yondashuv asosidagi metodlar o’quvchilarga adabiyot fanini chuqur o’zlashtirishga yordam beradi, ya’ni o’quvchilar bu metod orqali adabiy asarni analiz va qabul qilish yo’llarini, nazariy tushunchalarni, tarixiy-adabiy fakt va qonuniyatlarni bilib oladilar. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar nuqtayi nazariga ko’ra, ushbu yondashuv o’quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, bilimlarni mustaqil o’zlashtirishga o’rgatadi, adabiy asar, tanqidiy maqola va boshqa materiallar ustida ishlash ko’nikmalarini o’stiradi.

Mustaqil ta’lim turi sifatida Evristik yondashuv asosidagi ta’lim faqatgina XX asrning 90-yillariga kelib A.V.Xutorskoy va uning ilmiy maktabi tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan samarali ilmiy izlanishlar hamda tadqiqotlari tufayli shakllangan. Bu borada A.V.Xutorskoyning mana bu ta’rifi ham yuqoridagi fikrlarni asoslaydi: “Evristik yondashuvga asoslangan ta’lim – o’quvchi tomonidan ta’limning mazmuni, maqsadlarini tushunishi, shuningdek uni tashkil etish, diagnostika qilish va anglash jarayonini loyihalashtirishga qaratilgan ta’lim”. Evristik yondashuv asosida o’rganish – o’quvchi tomonidan yangilikni doimiy ravishda kashf etib borishdir. Evristik yondashuv asosida o’qitish usuli deganda o’rganish shakli (masalan, evristik suhbat), o’qitish usuli (aqliy hujum) va ijodiy rivojlanish texnologiyasi tushuniladi [A.B.Хытопской, 1998: 266]. Demak, o’qitishning evristik usuli – o’qituvchi tomonidan qo’yilgan savollarga mustaqil ravishda, ijodiy yondashuv asosida javob topishga qaratilgan usul. Ta’kidlab o’tish kerakki, bu jarayonda o’qituvchi tomonidan berilgan savol va topshiriqlarni bajarishda o’quvchi mustaqil izlanadi, o’zi mustaqil yechim topadi va mustaqil qaror qabul qiladi. Ushbu topshiriq bo’yicha o’quvchi qanday yechim topishi, qanday izlanmani qo’llashi va topilma qay tarzda bo’lishini oldindan aniqlab bo’lmaydi. O’quvchi topshiriq yechimini topish uchun izlanib, o’zi istagan yo’ldan boradi va yechimni topadi va yangilikni “kashf etadi”. Evristik yondashuv asosida o’qitish ancha oldin paydo bo’lganiga qaramay, u zamonaviy pedagogikada nisbatan yaqin yillardan boshlab qo’llanilmoqda.

Fanni o’qitish uchun evristik usulni joriy etgan Genri Edvard Armstrong fikricha “evristik yondashuv bu – bolalarga kashfiyot qilish imkonini beruvchi o’qitish usuli”. Bizningcha, yuqoridagi fikrlardan ushbu usulda o’quvchi o’z muammosiga javobni yordamsiz o’z mustaqil harakatlari bilan topishi kerak. Bu borada metodist olim Q.Husanboyeva to’g’ri ta’kidlaganidek, “Kashfiyotning lazzati qanchalar totli ekanini har bir odam biladi. Mana shu lazzatni vaqtliroq tuyish imkonini o’quvchilarga ham berish kerak. Kashf etish lazzati o’quvchini asar mohiyatiga chuqurroq kirishga, yangi-yangi topilmalar qilishga undaydi. Odam o’ziga huzur bergan ishni yana va yana qilgisi, uni chuqurlashtirishi, o’sha huzurni qayta tuygisi keladi. Adabiyot darslarining insonga xos bo’lgan mana shunday tabiiy sifatlari bilan hamohang kechishi o’quvchi shaxsiyatida fikr kishisini tarbiyalaydi” [Q.П.Хусанбоева, 2006: 67]. Shuni yodda saqlash kerakki, ijodkor, yaratuvchi shaxsni tarbiyalash, fanga ma’lum bo’lgan bilimlarning o’zi bilangina kifoyalanmay, olingan, o’zlashtirilgan bilimlar zahirida yangi bilimlarni kashf etishlari bilan muhimdir [R.Mavlonova va boshqalar, 2018: 464]. Bu mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o’quvchi tomonidan qarorlar qabul qilish, qiziqish va o’zi uchun yangilik deb bilgan voqelikni o’ylab topishga, yaratishga motivatsiya berish ularda yaratuvchanlik xususiyatini shakllantirib, ularni mustaqil fikrlashga o’rgatadi hamda ijodiy fikrlashga nisbatan xohish uyg’otadi.

Adabiyot darslarida evristik yondashuv bu – adabiy asarlarni chuqurroq anglash va o’quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun evristik usullardan foydalanishga qaratilgan yondashuv. Ushbu yondashuvning maqsadi nafaqat asarlarning syujeti va ramziyligini tushunish, balki maktab o’quvchilarida empatiya, ijodkorlik va tahliliy ko’nikmalarni rivojlantirishdir.

Hozirda ijod maktablarining 8–9-sinflarida amalda bo’lgan adabiyot darsligidan o’rin olgan ayrim mavzularni o’qitishda foydalanish uchun tuzilgan, darslikda berilmagan ijodiy topshiriqlardan ayrim namunalarni tavsiya etamiz.

8-sinf	
Mavzular	1-qism
“Ravshan” dostoni	“Ravshan” dostoni mazmuniga doir peyzaj namunasini chizing. Ushbu san’at asaringizni qanday nomlagan bo’lar edingiz?
Antuan de Sent-Ekzyuperi. “Kichkina shahzoda” qissasi	Sayyoralar, Baobab daraxti haqida nimalarni bilasiz? Bu haqida manbalardan ma’lumotlar tayyorlang va sinfda o’qib bering.
G’afur G’ulom. “Sog’inish” she’ri	Shoirning “Sog’inish” she’ridagi ruhiyat manzaralariga, betakror tashbehlar va xalqona ohang ifodasiga e’tibor bering. Mazkur she’r haqida so’ngso’z aytishga harakat qiling.
Chingiz Aytmatov. “Oq kema” qissasi	“Oq kema” qissasi qahramonlaridan intervyu olish vazifasi sizga yuklatilsa, kimlardan olgan bo’lar edingiz? Qahramonlarga beradigan savollaringizni qoralab chiqing va sinfdoshlaringizga o’qib bering.
Aleksandr Grin. “Alvon yelkanlar” qissasi	Aleksandr Grinning “Alvon yelkanlar” qissasida tabiat va odamlar tasvirida qanday musharaklik bor?
Lutfiy. “Agar sen bo’lmasang...” g’azali	Lutfiyning “Agar sen bo’lmasang...” g’azali baytlarida uchragan tarixiy joy nomlari bilan bog’liq tarixga oid ma’lumotlarni topishga harakat qiling.
Xayriddin Sultonov. “Saodat sohili” qissasi	“Saodat sohili” qissasi haqida qisqa sujetli axborot tayyorlang.
Alisher Navoiy. “Kimki bir ko’ngli buzug’ning...” g’azali	Ushbu g’azalda qanday she’riy san’atlardan go’zal ifodalar hosil qilingan. Jadvalni to’ldiring. She’riy san’atlar Qaysi baytda? Namuna
Alfons Dode. “So’nggi saboq” hikoyasi	“Besh panja” usuli  1. Asar haqida 5 ta ma’lumot ayting. 2. Asarning g’oyasi nimalardan iborat? 3. Hikoyadagi personajlarning ruhiy holatini o’rganing. 4. Hikoyada vatanga muhabbat tuyg’usi qaysi lavhalar orqali kuchliroq yoritilgan? 5. Hikoya so’ngida qanday xulosaga keldingiz?

2-qism	
Abdurauf Fitrat. “Yurt qayg’usi” she’ri	“Yurt qayg’usi” she’rida inson tuyg’ulari tasviri” mavzusida ijodiy matn yarating.
Xurshid Do’stmuhammad. “Mirkomilboyning qazo bo’lgan namozi” hikoyasi	1. Ushbu hikoya mazmuni asosida sahnalashtirilgan ko’rinishlar yarating. 2. Mirkomilboyning iztiroblariga monand kuy tanlang.
Maqsud Shayxzoda. “Jaloliddin Manguberdi” dramasi	Drama yuzasidan yozilgan maqolalar bilan tanishing. O’zingizga ma’qul bo’lgan maqolaga taqriz yozing.
O.Henri. “Yigirma yildan so’ng” hikoyasi	Xayolan asar qahramoni Jimmi bilan uchrashing. Unga qanday savollar bilan murojaat qilgan bo’lardingiz?
Shukur Xolmirzayev. “Ot egasi” hikoyasi	1. Asarning bosh qahramoniga 10 ta ta’rif bering. 2. Asarda keltirilgan daraxt, hayvon, taom va detal nomlaridan yodingizda qolganini yozing.
Robindranath Thakur. “Shubxa” hikoyasi	“Zabonsiz qiz hayqirig’i” mavzusida asar haqida taassurotlaringizni yozing. Uni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.
Isajon Sulton. “Shamolli kecha” hikoyasi	Tasavvur qiling, siz yozuvchisiz. Mazkur hikoyani qanday yakunlagan bo’lardingiz?
Sadrididdin Ayniy. “Sudxo’rning o’limi” qissasi	Asarda uchragan maqollarni toping. Topgan maqollaringiz izohini matn asosida dalillang.

9-sinf	
Mavzular	1-qism
Jek London. “Hayotga muhabbat” hikoyasi	Jek Londonning “Hayotga muhabbat” asari bilan Shukur Xolmirzayevning “Zov ostida adashuv” hikoyasini qiyosiy tadqiq qiling. Asarlar o’rtasida mavzu, mazmun, g’oyaviy qarashlar, badiiy tasvir va yozuvchilarning badiiy obraz yaratish mahorati jihatidan qanday yaqinliklarni kuzatdingiz?
Odil Yoqubov. “Ulug’bek xazinasi” romani	Roman bo’yicha qanday xulosaga kelganingiz haqida qisqacha matn tuzing.
Valentin Rasputin. “Fransuz tili saboqlari” hikoyasi	“Fransuz tili saboqlari” hikoyasi nomi va syujeti bir-biriga mos kelganmi? Siz hikoyani qanday nomlagan bo’lar edingiz?
2-qism	
Zahiriddin Muhammad Bobur. G’azallar	Bobur g’azallari quyidagi jadval asosida tahlil qilinadi: G’azalning qofiyalanish tartibini belgilang Qofiyadosh so’zlar va radiflarni aniqlang G’azalda qo’llangan badiiy san’atlarni toping G’azalning qisqacha mazmunini sharhlang

Shukrullo. "Kafansiz ko'milganlar" xotira-roman	Asardagi Shukrulloning uyini tintish jarayoni... Ushbu syujet yana qaysi asarlarda uchraydi?
Halima Xudoyberdiyeva. "Yo'ldadirman" she'ri	Lirik qahramon nomidan she'rda ta'kidlangan xatni Siz yozishga urinib ko'ring. Xatda aynan nimalarni ifodalagan bo'lar edingiz? Sinfdozlaringizga o'qib bering.
Tohir Malik. "Alvido, bolalik" qissasi	Asarda Qamariddin Asrorga sudga kelib, gaplarini tinglashini aytadi. Qissa esa bungacha yetib bormaydi. Azizo'quvchi! Asarni to'liq o'qib chiqqaningizdan foydalanib, Qamariddinning tilidan sud nutqini yozing. U, sizningcha, sudda nimalar degan bo'lar edi?

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, ushbu topshiriqlarda mantiqiylikka tayanish bilan birga fanlararo integratsiya ham kuzatiladi. Bu topshiriqlar o'quvchilarni kreativ, ijodiy fikrlashga undash bilan birga ularni ijodkorlikka, mustaqil fikrlashga undaydi.

Topshiriqlarning shakli va mazmuniga diqqat qilinsa, asarning janriy xususiyatlari nazarda tutilgani holda ayrim topshiriqlar avvalgilarini deyarli takrorlamagani va qiziqarli tarzda qo'yilgani bilan o'quvchilarga ma'qul keladi. Ko'rinadiki, parchani aslyat bilan solishtirish, qismlardagi ayrim abzas (xatboshi)larning hozirgi o'zbek tilidagi tabdilini yaratish, geografik nomlar ro'yxatini tuzish mazmunidagi topshiriqlar o'ziga xos va e'tiborni tortadi. O'quvchilarni haqiqiy ma'noda ijodkorlik faoliyatiga qiziqtiradi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik faoliyatiga asoslanishni taqozo etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor yo'nalishlarini izlanuvchi ta'lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta'limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Abdullayeva. Falsafa: ensiklopedik lug'at. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, – 2010. – B.307.
2. Ю.Н.Кулюткин. Эвристические методы в структуре решений. Москва: Издательство «Педагогика», 1970.
3. П.Ф.Каптерев. Новая русская педагогика, её главнейшие направления и деятели. – Санкт-Петербург, 1897. – 146 с.
4. Хуторской А. В. Эвристическое обучение: теория, методология, практика: Научное издание. Москва: Международная педагогическая академия, 1998. – 266 с.
5. Федоров К. П., Абрамян Г. В. Эвристические методы и методики обучения информатике в школах с углубленным изучением иностранных языков//Региональная информатика «РИ-2012»: Материалы юбилейной ХИИИ Санкт-Петербургской международной конференции. 2012. –С. 268-269.
6. Н.М.Тожибоева. Formation And Development Of Competitive Skills In The Subjects Of "Mass Culture" In Continuous Educational Process// EUROPEAN SCIENCE 2020. №2 (51). Part II Rossiyskiy impakt-faktor: 0,17 ISSN 2541-786X (Online). – P.51-53.
7. А.В.Хуторской. Эвристическое обучение: Теория, методология, практика. – Москва: Международная педагогическая академия, 1998. – 266 с.
8. Қ.П.Хусанбоева. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. – В.67.
9. R.Mavlonova va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2018, – 464 bet.
10. 8-sinf adabiyot darsligi (I qism) [Matn]: darslik / J.Nurmuhammadov, S.Qambarova, O.Olimjanov, M.Yuldasheva, S.Inomjonova. – Toshkent: "Adast poligraf", 2022. – 204 b.

11. 8-sinf adabiyot darsligi (II qism) [Matn]: darslik/J.Nurmuhammadov, S.Qambarova, O.Olimjanov, M.Yuldasheva, S.Inomjonova. – Toshkent: “Adast poligraf”, 2022. – 248 b.
12. 9-sinf adabiyot darsligi (I qism) [Matn]: darslik/J.Nurmuhammadov, S.Qambarova, O.Olimjanov, M.Yuldasheva, S.Inomjonova. – Toshkent: “Colorpack”, 2022. – 224 b.
13. 9-sinf adabiyot darsligi (II qism) [Matn]: darslik/J.Nurmuhammadov, S.Qambarova, O.Olimjanov, M.Yuldasheva, S.Inomjonova. – Toshkent: “Colorpack”, 2022. – 224 b.

O’QUVCHILARDA BADIY ASARLARNI TAHLIL QILISH LAYOQATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ozoda Shukurboyeva

ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

o.shukurboyeva@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta’lim maktabi o’quvchilarida badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishning nazariy asoslari ko’rsatib o’tilgan. Unda o’quvchilarni keng fikrli, mustaqil va ma’naviyatli shaxs qilib tarbiyalashda o’quvchilarga badiiy asarlar tahlilini o’rgatish ahamiyati ko’rsatilgan.

Kalit so’zlar: kompetensiya, tahlil, layoqat, adabiyot faniga oid kompetensiyalar

Annotation: In this article, the theoretical basis of the formation of the ability to analyze works of art in students of a general education school is shown. It shows the importance of teaching the analysis of works of art in the education of students as broad-minded, independent and spiritual individuals shown.

Key words: competence, analysis, ability, competences related to the science of literature

Bugungi kunda har tomonlama barkamol, har qanday muammoga yechim topa oladigan, mustaqil fikrlaydigan, inson ruhiy olamini, qalbini chuqur anglaydigan hamda ijtimoiy-psixologik munosabatlarda faol qatnasha oladigan shaxsni tarbiyalashni zamonning o’zi ko’ndalang bir masala qilib turibdi. Mana shunday masala yechimiga esa o’quvchilarda badiiy asarlarga qiziqish uyg’otish hamda ularda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish orqali erishish mumkin.

Yaxshi bilamizki, 2017-yil 6-aprelda yangilangan Davlat ta’lim standartiga kompetensiya atamasi ham kiritilgan bo’lib, bu o’quvchiga qo’yiladigan malaka talabning to’rtinchisi hisoblanadi. Umumiy o’rta ta’limning malaka talablariga bilim, malaka, ko’nikma hamda kompetensiyani kiritadigan bo’lsak, kompetensiyaning ko’nikma va malakadan asosiy farqi shundan iboratki, ko’nikma talabida o’rganilgan bilimni tanish vaziyatlarda, malaka talabida esa o’rganilgan bilim hamda shakllangan ko’nikmalarni notanish holatlarda qo’llay olish lozim bo’ladi. Kompetensiya esa bu ikki tushunchadan ham ustunlikka ega bo’lib, u egallangan bilim, malaka, ko’nikmalarni kundalik hayotda ham qo’llay olish demakdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, badiiy asarni to’g’ri tahlil qilish orqali o’quvchi o’z bilimlarini faqatgina notanish yo tanish holatlarda emas, balki kundalik hayotda qo’llay olishi kerak.

Adabiyot fani bo’yicha umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilariga qo’yiladigan malaka talablariga ikkita kompetensiya kiritilgan bo’lib, ulardan biri adabiy-nutqiy kompetensiyalar, ikkinchisi esa badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi hisoblanadi. Adabiy-nutqiy kompetensiyalar o’quvchida adabiyot fani bo’yicha tinglab tushunish, fikrni og’zaki va yozma bayon qilish, o’qish layoqatini shakllantirishni maqsad qilib qo’ysa, badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi esa o’quvchida badiiy asar tahliliga oid bilimlarni tarkib toptirishni o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi. Jumladan, ushbu kompetensiya adabiyot fanini o’rganishning turli bosqichlari (darajalari)da bitiruvchilarga quyidagicha talablarni qo’yadi. Jumladan, adabiyot fanini o’rganishning boshlang’ich darajasi(A1)da, ya’ni boshlang’ich sinf bitiruvchisidan badiiy matndagi so’z, gaplarning ma’nolarini tushunish, asar mazmunidan ta’sirlana olish, xalq og’zaki ijodi namunalari farqlash, o’rganilgan asarlarning nomi, muallifi, mazmuni va qahramonlarini ajrata bilishni, asar qahramonlariga munosabat bildirishni ol-